



## STRUCTURAL STRUCTURE OF SURKHANDARYA REGION VILLAGES

*Boturboy N. Makhmarajabov*

*Master student*

*Termiz State University*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Surkhandarya Region, villages, statistical data, rural settlements.

**Abstract:** This article discusses the Structure of Surkhandarya Region Villages. From the analysis of statistical data, it can be observed that most of the rural settlements in the region consist of small and medium-sized villages and that they are getting bigger.

**Received:**

**Accepted:**

**Published:**

## SURXONDARYO VILOYATI QISHLOQLARINING TARKIBIY TUZILISHI

*Boturboy N. Maxmarajabov*

*Magistrant*

*Termiz davlat universiteti*

### МАҚОЛА HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Surxondaryo viloyati, qishloqlar statistik ma'lumotlar, qishloq aholi punktlari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxondaryo Viloyati Qishloqlarining Tarkibiy Tuzilish muhokama qilingan. Statistik ma'lumotla tahlilidan viloyat hududida qishloq aholi manzilgohlarining aksariyati kichik va o'rta qishloqlardan iborat ekanligi va ularda tobora yiriklashish jarayoni ketayotganligini kuzatish mumkin.

## СТРУКТУРНАЯ СТРУКТУРА СЕЛ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

*Ботурбай Н. Махмараджабов*

*Магистрант*

*Термезский государственный университет*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Сурхандарьинская область, села, статистические данные, сельские населенные пункты.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается структурная структура сел Сурхандарьинской области. Из анализа статистических данных видно, что большая часть сельских населенных пунктов в районе состоит из малых и средних сел и что они укрупняются.

### KIRISH

Aholi va aholi manzilgohlari soni, uning tar kibiy tuzilishi va taqsimlanishi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy geografik omillar va hududni o'zlashtirilish darajasidagi xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, aholi o'sishi, uning joylashishini yirik mintaqa, shaharlar doirasida tadqiq qilish an'anaviy bo'lib qolgan, ammo qishloq aholi manzilgohlari va QAP (qishloq aholi punkti) miqyosida o'rganish esa nisbatan murakab va mehnat talab qiladi. Kichik - kichik qishloqlarning yiriklashib ular orasidagi masofalarning tobora yaqinlashib, qo'shilib ketishi qishloqlar va ular aholisi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarning to'g'ri emasligi nomlarining tez-tez o'zgarib turishi tadqiqotda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababdan qishloqlar, ularning tarkibi va funksional turlanishlariga bag'ishlangan ishlar juda oz bajarilgan. . [1, 24-b].

### **ASOSIY QISM**

Surxondaryo viloyati O'zbekistonda "eng qishloqli" mintaqalardan hisoblanadi. Bu yerda hozirgi vaqtda jami 858 ta QAP (2022 yil 1 yanvar holatiga) mavjud bo'lib, ulardan viloyat aholisining deyarli 63,8% ortig'i yoki jami aholi 2743,2 ming kishidan 1749,9 ming kishisi istiqomat qiladi. Tabiiyki, bunday urbanizatsiya darajasi past hududlarda, fikrimizcha, qishloq joylar negizi hisoblangan QAP – ni o'rganish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Viloyat maydonining juda katta qismini tog' va baland tog' tizmalarini egallab yotishi, tekislik qismining bir muncha ozligi (taxminan 30%) turlicha tuman aholi va aholi manzilgohlari joylashish geografik xususiyatlarini belgilaydi. Binobarin, viloyat qishloqlar geografiyasini tog' – vodiy va tekislik hududlarda joylashgan aholi manzilgohlari, ularning o'zaro munosabati belgilab beradi. Bundan tashqari, aynan shu hududlar o'zlashtirilganlik darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tabiiy geografik omillari mintaqa aholi manzilgohlari rivojlanishi va tarqalishda muhim o'rin tutadi. [1, 18-b].

Geografik jihatdan, Surxondaryo viloyati qishloq aholisi joylashishida ko'proq tabiiy geografik omillar ustunlikka ega. Sababi, aholining aynan sug'orish tizimlari, daryo bo'yлari, ya'ni suv manbalari atrofida, vodiy va vohalarda o'mashganligini yaqqol ko'rish mumkin. Shuningdek, viloyatning g'arbiy va shimoliy-g'arbiy qismini egallagan Hisor tizmaları (Kuhitang, Sarimos, Suvsiztog', Ketmonchopti va boshqalar), sharqiy tomonidagi Bobotog' tizmasi aholi manzilgohlar joylashishi uchun nisbatan qulay yerlar hisoblanadi. Aholi va aholi manzilgohlarining eng zich to'plangan joyi Surxon-Sherobod vodiysidagi tekisliklardir.

Keltirilgan sabablarga ko'ra QAPning hududiy tarkibi, qishloq tumanlari bo'yicha har xil. Eng ko'p qishloqlar soni Sarosiyo (115 ta yoki jami qishloqlarning 13,4 %) va Denov (106 ta yoki jami qishloqlarning 12,3 %) tumanlarida qayd etilgan. Shuningdek, Sherobod, Uzun va Qumqo'rg'on tumanlarida ham ularning soni ko'p. Ayni vaqtda eng kamsonli qishloqlar Angor, Termiz va Bandixon tumanlarida kuzatiladi.

## Surxandaryo viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi

	Hududi (ming km <sup>2</sup> )	Tumanlar	Jami shaharlar	shu jumladan, respublika va viloyat bo'ysunuvidagi	Shaharchalar	Qishloq fuqarolari yig'inlari	Qishloq aholi punktлari
(2022 yil 1 yanvar holatiga)							
Surxandaryo viloyati	20,10	14	8	1	112	0	858
Termiz sh.	0,04	0	1	1	0	0	0
tumanlar:							
Oltinsoy	0,57	1	0		14		46
Angor	0,39	1	0		12		27
Bandixon	0,68	1	0		3		40
Boysun	3,21	1	1		4		49
Muzrabot	0,74	1	0		10		48
Denov	1,15	1	1		11		106
Jarqo'rg'on	1,16	1	1		5		66
Qumqo'rg'on	1,83	1	1		11		76
Qiziriq	0,38	1	0		5		42
Sariosiyo	3,82	1	1		4		115
Termiz	0,83	1	0		7		27
Uzun	1,84	1	0		9		76
Sherobod	2,73	1	1		7		96
Sho'rchi	0,72	1	1		10		44

Jadvalda tahlili shuni ko'rsatadiki, tumanlar darajasida qishloqlarning katta – kichikligi ham o'zaro keskin farq qiladi. Masalan, viloyat bo'yicha har bir QAPga o'rtacha 2039,5 kishi to'g'ri kelgani holda, bu ko'rsatkich. Sho'rchi, Termiz, Bandixon, Angor, Oltinsoy tumanlarida ancha yuqori. Shu bilan birga Boysun, Uzun, Sherobod tumanlarida qishloqlarning demografik salohiyati ancha past.

Statistika bosh boshqarmasi ma'lumotga ko'ra, viloyatda 858 ta (2022 yil) **qishloqlar** mavjud, ularning respublikadagi salmog'i 10964 ta, taxlillar bo'yicha qishloqlar umumiyligi miqdorini ifodalovchi ko'rsatkich turli yillarda o'zgarib borgan. Chunki, viloyat tarkibidagi qishloqlarning soni 1999 yili 975 ta bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib ularning soni 117 taga kamaygan. Bunga sabab kichik-kichik qishloqlarning yirikroq qishloqlarga qo'shilib ketishidir.

Bunday qishloqlar sonining ko'payishi va kamayishi respublikamiz barcha viloyatlari uchun xos holatdir. Jumladan, Jizzax viloyati tarkibidagi qishloqlar 1989-1998 yillarda 49 taga ko'paygan (Tojieva Z., 1998, 47-bet). Xuddi shunday holat Namangan viloyatida ham kuzatiladi.

Oxirgi ikki aholi ro'yxati orasida qishloqlar soni bu viloyatda 250, 1 taga oshgan (Nazarov M., 1996, 55-bet). Biroq, Toshkent viloyatida ularning soni kamayib borish xususiyatiga ega bo'lgan. Masalan, 1979-1989 yillarda bu mintaqadagi qishloqlar soni 136 taga kamaygan (Mahamadaliev R., 1993, 72-b).

Qishloqlar sonining davriy o‘zgarishi hududiy tafovutlarga ham ega. Chunonchi, Surxondaryo viloyatining shimoli-sharqiy hududida joylashgan tumanlar tarkibiga kiruvchi qishloqlar nisbatan ko‘pligi bilan ko‘zga tashlanadi. Bu yerlardagi qishloqlar, soy daryo bo‘ylarida, yo‘l atrofida tarqalgan bo‘lib, aholisining zichlik ko‘rsatkichi nisbatan pastdir. Aksincha, aholisi zich joylashgan janubiy, janubi-g‘arbiy hududlardagi tumanlarda qishloqlar kam sonli. Viloyatning aksariyat qishloqlari Termiz-Denov yo‘nalishdagi avtomobil va temir yo‘l hamda Surxondaryo daryosi vodiysi bo‘ylab joylashgan. Mintaqa markazidan shimoli-sharq tomonga yo‘nalgan ushbu transport va daryo o‘tgan hududlarda jami qishloqlarning 61,1 foizi mujassamlashgan .

Surxondaryo viloyati aholi manzilgohlarini geografik tadqiq etishda ulardagi aholi soni muhim mezon bo‘lib, shu jihatdan ularni guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Bunda mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda Surxondaryo viloyati QAP 6 ta asosiy guruhlarga ajratiladi.

S. A. Kovalyov aholisi 1000-2000 bo‘lgan aholi manzilgohlarini qishloq joylar uchun yirik deb hisoblaydi. Chunki, bunday aholi manzilgohlarida xizmat ko‘rsatish sohalari doirasini kengaytirish va rivojlantirish uchun yetarlicha sharoit vujudga keladi (Kovalyov S. A., 1963, 37-b). Hozirgi vaqtida respublikamizda qabul qilingan me’yoriy hujjatlarga muvofiq, 1000 aholisi kishiga bo‘lgan QAM **kichik**, 1000 – 3000 kishigacha – **o‘rta**, 3000 – 5000 kishigacha – **katta** va 5000 kishidan ortiq aholisi bor qishloqlar esa **yirik**, deb e’lon qilingan (“O‘zqishloqloyiha” instituti ma’lumotlari, 2002).

Respublikamizda 2008 yil ma’lumotlari bo‘yicha, yirik qishloqlar soni 300 dan ortiq (2,5 %), katta qishloqlar 890 ta (7,6 %), o‘rta qishloqlar – 4300 ga yaqin (36,3%) va qolganlari (53,6 %) kichik qishloqlar tarkibiga kiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, katta va yirik qishloqlar asosan Namangan (176 ta) va Andijon (165 ta) viloyatlarida joylashgan. Kichik qishloqlar soni bo‘yicha esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro va Samarcand viloyatlari ajralib turadi. Surxondaryo viloyati bu borada o‘rtacha mavqeni egallaydi. Bu yerda, umuman olganda, o‘rta QAM qo‘pchilikni tashkil qiladi.

Viloyatda 500 kishigacha bo‘lgan qishloqlar jami qishloqlarning 12,0 foizini tashkil etib, miqdori bo‘yicha uchinchi o‘rinni egallaydi. Aholisi 501-1000 kishidan iborat qishloqlar (20,3 foiz) ikkinchi, 1001-3000 kishigacha bo‘lgan guruhga mansub qishloqlar birinchi o‘rindadir. Shuningdek, aholisi 5001 kishidan yuqori bo‘lgan qishloqlar eng kam sonli, ya’ni atigi 16 tani tashkil etadi.

Surxondaryoda qishloqlar soni 1989-2008 yillarda 846 tadan 847 taga yetdi, ya’ni atigi 1 taga ko‘paydi. Bu Bandixon tumani hisobidan yuzaga keldi. Tahlillar ko‘rsatishicha, 500 kishigacha bo‘lgan qishloqlar ko‘rilayotgan davrda 2 martadan ziyodroqqa kamaydi. Shuningdek,

500 – 1000 kishilik QAM ham 253 tadan 169 taga tushib qoldi. Qolgan guruhlarda esa, aksincha, ko‘payish qayd etiladi. Jumladan, 2000 – 3000 aholiga ega bo‘lgan qishloqlar soni 89 tadan 195 taga yetdi, katta qishloqlar deyarli 2,0 martaga ko‘paydi; agar 1989 yilda yirik qishloqlar (5000 kishidan ziyod) 7 ta bo‘lsa, 2007 yilda ularning soni 16 tani tashkil etdi (4 - va 5 - ilovalarga qarang).

Shunday qilib, viloyat qishloqlar aholi manzilgohlari miqdor jihatidan sezilarli darajada o‘zgarmagan bo‘lsada, ularning tarkibiy tuzilishida jiddiy siljishlar kuzatiladi. Umumiylarayon qishloqlarning yiriklashib borishida o‘z aksini topadi: 1989 yilda 1 ta QAMga o‘rtacha 1260 kishi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2007 yilda bu ko‘rsatkich 1867 kishini tashkil etdi.

Statistik ma’lumotlar tahlilidan viloyat hududida qishloq aholi manzilgohlarining aksariyati kichik va o‘rta qishloqlardan iborat ekanligi va ularda tobora yiriklashish jarayoni ketayotganligini kuzatish mumkin. Shu boisdan mintaqadagi qishloqlarda ijtimoiy infratuzilma tizimini to‘g‘ri tashkil etishdek muhim masalalarga alohida e’tibor qaratish, ijtimoiy-ekologik muammolar yechimini topish zarur bo‘ladi.

Qishloq aholi manzilgohlarining soni, o‘sishi, hududiy tarqalishini o‘rganish, ularning joylashuvidan o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘rsatib beradi. Sababi, viloyatdagi qishloqlarni soniga ko‘ra guruhshtirilib tahlil etilganda barcha tumanlar deyarli bir-biriga o‘xshamasligi, har biri o‘zgacha mavqeini egallashi ma’lum bo‘ldi. Jumladan, 2007 yilda aholisi 500 kishigacha bo‘lgan guruhga 396 ta qishloq to‘g‘ri kelsa, buning eng ko‘pi Sariosiyo (25,9 foiz), Boysun (9,4%) va Denov (136%) tumanlarda joylashgan.

## XULOSA

Qumqo‘rg‘on, Denov, Muzrabot tumanlarida aholi soni 5001 dan yuqori bo‘lgan qishloqlarning ko‘payib borishi kuzatiladi. Chunki, 3001-5000 va 5001 guruhiiga mansub qishloqlar bu tumanlarda, nisbatan olganda, ko‘pligi bilan ajralib turadi. Bandixon tumanida esa jami qishloqlarning 88,1 foizi aholisi 1001-3000 kishigacha bo‘lgan qishloqlarga to‘g‘ri keladi. . [1, 16-b.]. Mazkur tumanning bunday xususiyatga ega bo‘lishiga, avvalo, qishloq aholi manzilgohlari eng kam va unda yashovchilar miqdori ham kichik ekanligi sabablidir. Odatda, shunday qishloqlar bo‘ladiki, ularda qishloqlar soni kam, ammo ularda yashovchi soni ko‘p, ikkinchisida butunlay buning aksi, ya’ni qishloqlar ko‘p, aholi soni jihatdan salmog‘i kam, uchinchisida esa qishloqlar va unda yashovchilar ham kam sonli bo‘lishidadir. Bandixon tumani aynan uchinchisiga mos, chunki bu yerdagi qishloqlar asosan o‘rta va katta guruhga mansub bo‘lib; ular asosan keyingi yillarda yangi yarlarni o‘zlashtirish munosabati bilan shakllangan [1, 10-b.].

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Abdunazarov X. M. Surxondaryo viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishslash sanoatining hududiy tashkil etilishi. Geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. –T., 2005.-24 b.
2. Abdullaev Yo. Statistika nazariyasi: 100 savol va javob. – T.: Mehnat, 2000. – 448 b.
3. Asanov G. R. Aholi geografiyasi – T.: O‘qituvchi, 1978. – 222 b.
4. Axmadaliev Yu. I., Omonov A. S. Qishloq joylardagi demografik jarayonlar va ularning yer bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichiga ta’siri // O‘zbekiston GJ axboroti, 27-jild.- T., 2006. – B. 112-115.
5. Bo‘rieva M. Demografiya asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2001. – 117 b.
6. YUNUSOVA, G. METHODOLOGY OF MAKING AND USING SITE FOR “STATISTIK PHYSICS” AT THE SYSTEM WORD PRESS. *EDUCATIONAL PROCESS IN UZBEKISTAN AND FOREIGN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND ITS COMPARATIVE ANALYSIS*.
7. Mirkomil, G., Lapasova, U., & Umurzakova, G. (2020). Territorial Aspects Of The Organization Of Ecotourism Routes In The Turkestan Ridge. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 2(11), 87-90.
8. Ozodbek, N., Tolipov, F., & Yunusova, X. (2019). Historical and ethnographic features of the Uzbek Kurash. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(2 Special Issue 3), 1614-1616.
9. Karimov, N. R. (2017). Researches on the scientific heritage of hakim tirmizi in egypt. In *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 177-180).